TA’LIMNI INTEGRATSIYALASH MASALALARI

R.N.Ergashev - Guliston davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” professori v.b., p.f.n.

Annotatsiya: Ushbu tezisda ta’limni integratsiyalashning mazmun va mohiyati, xorijiy olimlarining bu haqdagi fikr va mulohazalari, o‘quv fanlari o‘rtasida yaqin aloqadorlikni o‘rnatishning zamonaviy tur, shakl va metodlari asoslab berilgan. Ta’lim jarayonini integratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, uning asosiy tarkibiy qismlari va texnologik jihatlari, uni amaliyotga tatbiq etishda rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalanish imkoniyatlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, ta’limni integratsiyalash, uning mazmun va mohiyati, o‘quv fanlari o‘rtasida aloqadorlikni o‘rnatish, uning zamonaviy tur, shakl va metodlari, integratsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, uning tarkibiy qismlari.

Uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro ta’lim standartlari darajasiga olib chiqish, bu borada rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o‘zlashtirish va o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish ta’lim sohasidagi olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. [1]

Ta’limda integratsiyalashgan va innovatsion yondashuvlani joriy etishr, ta’lim jarayonida o‘quv fanlari o‘rtasida yaqin aloqadorlikni o‘rnatishning zamonaviy tur, shakl va metodlaridan foydalanish dunyo miqyosidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, ta’lim integratsiyasi bu – *fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita.* Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta’riflar turlicha bo‘lib, ushbu ta’riflarning umumiylik tomoni – integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat. [2]

Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o‘zining rivojini integratsiya g‘oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo‘lgan predmetlarni o‘rganish bo‘lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlari yaxlit, bir butunligini ta’minlovchi omil sifatida qaraladi.

Yu.M.Kolyagin fikriga ko‘ra, ta’lim tizimida integratsiya ikki xil ma’noda qo‘llanilishi mumkin:

1. O‘quvchilarda atrofimizdagi olam haqida bir butun, yaxlit tasavvurni shakllantirish (bunda integratsiyaga ta’lim maqsadi sifatida qaraladi).

2. Predmetlardan beriladigan bilimlarni yaqinlashtirishning umumiy platformasini topish (bu yerda integratsiya – ta’lim vositasi hisoblanadi). [3]

Birinchi ma’no bo‘yicha integratsiya o‘quvchi bilim dargohiga dastlabki qadamini qo‘yishidanoq, dunyoni yaxlit, bir butun, uning barcha elementlari o‘zaro bog‘langan tizim sifatida tasavvur qilib olsin.

Ikkinchi ma’noda integratsiya o‘quv fanlaridan beriladigan bilimlarning o‘zaro to‘qnash(uchrash)gan yeri(nuqtasi)da yangi tasavvurlarni anglay olsin. Dastlab,

fanlardagi fikr (g‘oya)lar to‘qnashgan nuqtada avvaldan bo‘lgan tabaqalashgan bilimlardagi kamchiliklarni to‘ldirishga, ular o‘rtasida bo‘lgan bog‘lanishlarni tarkib toptirishga da’vat etsin.

Ta’limdagi integratsiyani quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Butun borliq haqida yaxlit tassavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta’lim maqsadi sifatida qaraladi);

2. Turli fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platforma topish (bunda integratsiya vosita sifatida ishlatiladi).

3. Rivojlantiruvchi ta’lim berish vositasi sifatida.

4. Umuminsoniy, milliy tarbiya vositasi sifatida. [4]

Ikki o‘quv fani o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishda va ularning integratsiyasida vaqti-vaqti bilan u yoki bu fan tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Turli o‘quv fanlardagi mavzularning uzviy bog‘liqligi va mantiqiy o‘zaro aloqadorligi integratsiyalashgan darslarning asosi bo‘lishi kerak.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, integratsiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Ob’ektga doir integratsiya**: bunda bir ob’ektning turli fanlardagi timsollari bir mavzu, bo‘lim yoki kurslarga (yer, suv, havo, oziq-ovqat va boshqa) kiritiladi.

2. **Tushunchaga oid integratsiya**: bunda umumiy tushuncha (energiya, harakat, modda, axborot va boshqalar)lar mazmunini ochib beradigan mavzu yoki kurslar qamrab olinadi.

3. Nazariyaga oid integratsiya: u fizika, kimyo, biologiyadagi kvant nazariyasi; biologiya, kimyo, astronomiya, texnika, sotsiologiyadagi evolyusion nazariyaga asoslanadi.

4. Metodologik integratsiya: u falsafa metodologiyasi kabi ilmiy bilishning alohida metodlariga taalluqli integratsiya bo‘lib, ularga tizimli yondashuvning qo‘llanilishi va uning mohiyati, tabiatshunoslikka oid muammolarning qo‘yilishi va ularning hal etilishi; fandagi tushuntirish va prognoz qilish; kuzatish, tajriba, modellashtirishning tuzilish mohiyati va qo‘llanilishi kabilar kiritiladi.

5. Muammoli integratsiya: u turli kenglik darajasidagi fanlararo muammolarni qamrab oladi (atrof-muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar).

6. Faoliyatga oid integratsiya: munozara, guruhlar tarkibida ishlash, fanlararo reja va loyihalar tuzish va boshqalar.

7. Amaliy integratsiya: turli jarayon yoki texnik mahsulotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish, antibiotiklar, sintetik moddalar, biotexnologiya kompyuterlar va boshqalar. [5]

Ta’limda o‘quvchilarga ma’lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o‘zi bugungi kunda yetarli bo‘lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg‘otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta’lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi –

o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir.

Ta'limni integratsiya qilish o'z mohiyatiga ko'ra, ikki xil ma'noga ega: o'quvchida atrofdagi olam to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida ko'riladi); predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda integratsiya – ta'lim vositasi sifatida ko'riladi).

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi kerak.

Integratsiya *– predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarini qabul qilish vositasi.* Birinchi navbatda, tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim. U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'limining klassik o'quv predmetlari o'rnini egallashi kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyaning ta'lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida «hamma narsa to'g'risida ozgina bilish» lozim bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarni birlashtirish kerak bo'ladi va oxiriga kelib «ozgina narsa to'g'risida hammasini bilish» kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

O'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o'zgarishlarining ham bo'lishini taqozo etmoqda. Bu jihatdan rivojlangan davlatlarning tajribasiga tayanmoq lozim. Ularning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ xaraktyerdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo'lsa, Koreya va Shveytsariyada integratsiyalashgan fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv fanlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi.

Demak, mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni integratsiyalash uchun rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalanish, uning zamonaviy shakl, tur va metodlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarimiz cheksiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni. –T., 2020 yil, 23 sentyabr.

2. Mavlanova R.A., Raxmankulova N.X., Matnazarova K.O. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. -T., 2012.

3. Mavlonova R.A., Raxmankulova N.X. Boshlang'ich ta`limda innovatsiya. -T., TDPU, 2007.

4. Пугачёва Н.Б. Источники инноваций обшеобразовательного учреждения. – Завуч, 2005, № 3. С. -29.

5. Ergashev R. N. va boshq. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. Darslik.–T., 2021